

XII. DEMOGRAFIK HOLAT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning 1-iyul holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 491,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 15,6 ming kishiga yoki 101,1 foizga ko'paydi. Shundan, 700,1 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 47,0 %) va 791,0 ming kishi – qishloq joylarida (53,0 %) istiqomat qiladi.



**Jizzax viloyatining hududlari
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2023 yilning 1-iyul holatiga)**

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda			Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq		shahar	qishloq
Jizzax viloyati	1491,1	700,1	791,0	102,3	102,3	102,2	100,0	100,0	100,0
<i>shahar:</i>									
Jizzax	194,5	194,5	00,0	102,9	102,9	0,0	13,0	27,8	0,0
<i>tumanlar:</i>									
Arnasoy	48,3	16,6	31,7	101,5	101,3	101,4	3,2	2,4	4,0
Baxmal	168,4	46,0	122,4	102,3	102,8	102,1	11,3	6,6	15,5
G'allaorol	184,8	64,5	120,3	102,3	102,1	102,4	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	239,5	95,2	144,3	102,5	102,3	102,6	16,0	13,5	18,1
Do'stlik	69,4	29,4	40,0	101,8	101,9	101,7	4,7	4,2	5,1
Zomin	177,2	84,1	93,1	102,4	102,2	102,6	11,9	12,0	11,8
Zarbdor	93,6	51,8	41,8	102,4	102,4	102,6	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	53,1	24,2	28,9	101,9	101,9	102,0	3,6	3,5	3,7
Mirzacho'l	54,8	30,7	24,1	101,5	101,7	101,3	3,7	4,4	3,0
Paxtakor	80,2	38,7	41,5	102,4	102,1	102,9	5,4	5,5	5,2
Forish	97,6	18,1	79,5	101,7	101,5	101,7	6,5	2,6	10,1
Yangiobod	29,7	6,3	23,4	101,7	100,7	101,9	2,0	0,9	3,0



Doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2023 yilning 1-iyul holatiga)

Doimiy aholi soni

1 491,1

Tabiiy o'sish

+16,5

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



47,0 %

Qishloq




53,0 %

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1-iyul holatiga

Erkaklar


50,4%



752,2 ming kishi

Ayollar

49,6%




738,9 ming kishi

2023 yilning 1-iyul holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 491,1 ming kishini tashkil etib, shundan, 700,1 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 47,0 %) va 791,0 ming kishi – qishloq joylarida (53,0 %) istiqomat qiladi.



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2023- yil 1-iyul xolatiga)




Yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2022-yil	2023-yil	2022-yil	2023-yil
Tug'ilganlar	18 330	19 720	25,5	26,8
Vafot etganlar	3 141	3 254	4,4	4,4
<i>shu jumladan:</i>				
Nikohlar	4 141	3 564	5,8	4,8
Ajralishlar	827	873	1,1	1,2

Tug'ilish. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni 19 720 kishini tashkil etdi va 2022 yilning shu davriga (18 330 kishi) nisbatan 1 390 kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 26,8 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (27,9 promilledan 33,7 promillegacha), Do'stlik (20,4 promilledan 25,8 promillegacha), Baxmal (26,8 promilledan 28,7 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti
2023- yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)




O‘lim. 2023- yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 3 254 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (3 141 kishi) nisbatan 113 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil qildi (2022 yil yanvar-iyun 4,4 promille bo‘lgan).

O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘shishi Sharof Rashidov (2,6 dan 5,0 promillegacha) Arnasoy (3,4 dan 5,4 promillegacha), Yangiobod (3,9 dan 5,7 promillegacha), hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Zomin (4,1 promille) Mirzacho‘l (2,8 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti


2023- yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)



O'lganlar umumiy sonidan 37,5 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,3 foizi – o'sma kasalliklaridan, 8,7 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 3,9 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 26,2 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 2,1 foizi – infeksiyon va parazitlar kasalliklaridan, 14,3 foizi – boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(jami vafot etganlarga nisbatan, % da)



Nikohlar va ajralishlar. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 3 564 ta nikohlar va 873 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 4,8 ni (2022 yilning yanvar-iyunda 5,8 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 ni (2022 yilning yanvar-iyunda 1,1 bo‘lgan) tashkil etgan.

2023 -yilning yanvar-iyun oyida viloyat bo‘yicha tuzilgan nikoh koeffitsiyenti



Tuzilgan nikohlar soni 2022 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payishi kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur‘ati Jizzax shahri (105,9 %), Forish (94,8%), G‘allaorol (93,7 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.




Hududlarda yanvar-iyun oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni

(kishida)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Jizzax viloyati	4 141	3 564	827	873
<i>shahar:</i>				
Jizzax	627	664	134	156
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100	88	27	24
Baxmal	460	399	83	70
G'allaorol	523	490	103	103
Sharof Rashidov	688	530	127	153
Do'stlik	165	147	28	39
Zomin	560	418	97	86
Zarbdor	279	193	39	51
Zafarobod	148	113	32	29
Mirzacho'l	119	91	36	39
Paxtakor	233	207	56	57
Forish	192	182	48	52
Yangiobod	47	42	17	14

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti
(2023 yil yanvar-iyun)



Ajrimlar sonini 2022 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o‘shish sur’ati Do‘stlik (139,3 %), Zarbdor (130,8 %), Sh.Rashidov (120,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Ajrimlar sonining eng past ko‘rsatkich Yangiobod (82,4 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'lishi
soni va koeffitsiyenti

(kishi)

	Kishi soni		1 000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil

Jizzax viloyati	15 189	16 466	21,1	22,4
------------------------	---------------	---------------	-------------	-------------

shahar:

Jizzax	2 286	2843	24,5	29,7
--------	-------	------	------	------

tumanlar:

Arnasoy	442	367	18,8	15,4
---------	-----	-----	------	------

Baxmal	1 766	2 000	21,7	24,1
--------	-------	-------	------	------

G'allaorol	1 805	2106	20,2	23,1
------------	-------	------	------	------

Sharof Rashidov	2 690	2 577	23,4	21,8
-----------------	-------	-------	------	------

Do'stlik	571	721	16,9	21,1
----------	-----	-----	------	------

Zomin	1 810	2 054	21,2	23,5
-------	-------	-------	------	------

Zarbdor	960	978	21,3	21,2
---------	-----	-----	------	------

Zafarobod	521	454	20,3	17,3
-----------	-----	-----	------	------

Mirzacho'l	421	367	15,8	13,5
------------	-----	-----	------	------

Paxtakor	801	915	20,7	23,2
----------	-----	-----	------	------

Forish	880	859	18,6	17,8
--------	-----	-----	------	------

Yangiobod	236	225	16,3	15,4
-----------	-----	-----	------	------

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3 022 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 3 873 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 851 kishi tashkil etgan, 2022 yilning mos davrida minus 903 kishi bo'lgan.



Yanvar-iyun oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosini	
	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil	2022- yil	2023- yil
Jizzax viloyati	3 455	3 022	4 358	3 873	-903	-851
<i>shahar:</i>						
Jizzax	726	723	794	675	-68	48
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	90	65	194	173	-104	-108
Baxmal	159	153	447	383	-288	-230
G'allaorol	192	166	414	330	-222	-164
Sharof Rashidov	861	608	517	531	344	77
Do'stlik	132	134	272	260	-140	-126
Zomin	240	236	363	317	-123	-81
Zarbdor	231	172	234	211	-3	-39
Zafarobod	129	122	159	174	-30	-52
Mirzacho'l	244	217	226	231	18	-14
Paxtakor	278	260	298	256	-20	4
Forish	106	117	320	250	-214	-133
Yangiobod	67	49	120	82	-53	-33

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 230 kishi), G'allaorol (minus 164 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosini Sharof Rashidov tumani (77 kishi), Jizzax shahrida (48 kishi) , va Paxtakor (4 kishi) kuzatildi.